

ENGINEER



international scientific journal

SPECIAL ISSUE

E-ISSN

3030-3893

ISSN

3060-5172



SLIB.UZ
Scientific library of Uzbekistan



A bridge between science and innovation



**TOSHKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI**

Tashkent state
transport university



ENGINEER

A bridge between science and innovation

E-ISSN: 3030-3893

ISSN: 3060-5172

SPECIAL ISSUE

MARCH 27, 2026



engineer.tstu.uz

**“WOMEN IN INNOVATION AND SCIENCE”
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA VA FORUMI
ILMIY ISHLARI TO‘PLAMI**

Toshkent davlat transport universitetida 2026-yil 27-mart kuni “Women in Innovation and Science” xalqaro forumi ilmiy ishlari to‘plami chop etildi.

Mazkur nufuzli tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Transport vazirligi hamkorligida tashkil etilib, mamlakatimizda ilm-fan, innovatsiyalar va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek xalqaro ilmiy hamkorlikni yanada kengaytirishga qaratilgan muhim platforma hisoblanadi.

Konferensiya ochilish marosimida davlat organlari, xalqaro tashkilotlar va yetakchi oliy ta’lim muassasalari vakillari ishtirok etdi. Jumladan, Toshkent davlat transport universiteti rektori G‘ulomov Abdulaziz Abdullayevich, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi vakili Ulmasova Lobarkhon Adilovna, Osiyo taraqqiyot banki eksperti Claire Charnac, Istanbul Aydin universiteti vasiylik kengashi raisi Mustafa Aydin, Belarus davlat transport universiteti rektori Kazakov Nikolay Nikolayevich hamda Qirg‘iziston Respublikasi Transport vazirligi vakili Dinara Moldokalieva ishtirok etdilar.

Konferensiya ilmiy dasturi doirasida plenar va panel sessiyalar, shuningdek ilmiy ma’ruzalar taqdimoti o‘tkazilib, ularda sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalarni iqtisodiyot va ta’limga joriy etish, transport va aviatsiya sohasida innovatsion yechimlar, sanoat va IT sohasida texnologiya transferi, shuningdek ta’limda raqamli platformalar va intellektual tizimlar kabi dolzarb masalalar yoritildi.

2026-yil 27-mart kuni o‘tkazilgan “Women in Innovation and Science” xalqaro forumi ayollar yetakchiligi, innovatsiyalar va STEM sohalariga bag‘ishlangan bo‘lib, mamlakatimizda ayollarning ilm-fan va texnologiya sohalaridagi ishtirokini kengaytirish, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan strategik maydon sifatida tashkil etildi.

Forum doirasida ayollar yetakchiligini rivojlantirish va rag‘batlantirish, xalqaro tajriba almashinuvi va ilmiy tarmoqlarni kengaytirish, yosh tadqiqotchi ayollar va PhD talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda innovatsion ekotizimlarda gender tenglikni ta’minlash kabi ustuvor vazifalar amalga oshirildi. Shuningdek, forumda ayollar yetakchiligi va STEM, gender tenglik va ilm-fan institutsional rivoji, ayollar tadbirkorligi va innovatsion startaplar, innovatsiya ekotizimlari va xalqaro hamkorlik, yosh ayol tadqiqotchilarni rivojlantirish, mentorlik va akademik tarmoqlar yo‘nalishlarida tematik sessiyalar tashkil etildi.

Forumda davlat organlari, xalqaro tashkilotlar, yetakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar vakillari, jumladan “OLIMA” uyushmasi raisi Murtazayeva Raxbar Hamidovna, “Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamoat fondi raisi Tursunbayeva Saodat Gafurovna, Osiyo taraqqiyot banki eksperti Claire Charnac, O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi vakili Ulmasova Lobarkhon Adilovna, Toshkent davlat transport universiteti rektori G‘ulomov Abdulaziz Abdullayevich, Qirg‘iziston Respublikasi Transport vazirligi vakili Dinara Moldokalieva hamda Indoneziyadan universitet dekani Yoga Prihatin ishtirok etdilar.



Shuningdek, forumda Yevropa va Osiyo davlatlaridan yetakchi olimlar, ekspertlar va yosh tadqiqotchilar keng qatnashdi.

Forum dasturiga ochilish marosimi, panel muhokamalar, ilmiy chiqishlar hamda professional rivojlanish bo'yicha workshoplar kiritilgan bo'lib, ular doirasida gender tenglik, ayollar karyerasini rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion boshqaruv bo'yicha amaliy seminarlar tashkil etildi.

Mazkur tadbirlar Osiyo taraqqiyot banki (ADB), "OLIMA" — O'zbekiston xotin-qizlar olimlari uyushmasi, "Sharq ayoli" xalqaro ayollar jamoat fondi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati (GIZ), shuningdek Rossiya, Turkiya, Indoneziya va Qirg'iziston oliy ta'lim muassasalari hamda Belarus Milliy fanlar akademiyasi ilmiy institutlari hamkorligida o'tkazildi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va forumning ahamiyati shundaki, ular xalqaro ilmiy hamkorlikni mustahkamlash, innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, raqamli va barqaror rivojlanishni ta'minlash, shuningdek ayollarning ilm-fan va innovatsiya sohalaridagi rolini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur tadbirlar yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash, ilmiy tajriba almashish hamda global ilmiy makonga integratsiyalashuvni jadallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya va forumning maqsadi zamonaviy ilmiy tadqiqot yo'nalishlarini muhokama qilish, innovatsion yondashuvlar va ilg'or texnologiyalar bo'yicha ilmiy natijalar almashuvini ta'minlash, shuningdek xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirishdan iboratdir.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi hamda xorijiy mamlakatlarning oliy ta'lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari olimlari, shuningdek amaliyotda muhim natijalarga ega bo'lgan mutaxassislar o'z ilmiy ishlari bilan ishtirok etdilar.

Ushbu ilmiy to'plamda muhandislik, transport, raqamlashtirish, sun'iy intellekt, innovatsion boshqaruv, gender tenglik va barqaror rivojlanish sohalarida faoliyat yuritayotgan yetakchi olimlar, professor-o'qituvchilar va tadqiqotchilarning ilmiy ishlari jamlangan. To'plamda dolzarb ilmiy muammolar, zamonaviy yechimlar, nazariy va amaliy tadqiqot natijalari yoritilib, ushbu yo'nalishlarning bugungi holati va istiqboldagi rivojlanish tendensiyalari aks ettirilgan.

Mazkur nashr mamlakatimizda ilm-fan va innovatsion rivojlanishni ta'minlash, xalqaro ilmiy aloqalarni mustahkamlash hamda yosh olimlar va tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash yo'lidagi muhim qadamlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Shuningdek, mazkur ilmiy to'plamda keltirilgan natijalar kelgusida ilmiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, amaliyotga yo'naltirilgan innovatsion yechimlarni keng joriy etish hamda sohalararo integratsiyani chuqurlashtirish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. To'plam materiallari nafaqat ilmiy jamoatchilik, balki ishlab chiqarish sohasi mutaxassislari, doktorantlar va talabalar uchun ham foydali manba hisoblanadi.

Mazkur nashrda yoritilgan ilmiy g'oyalar va ilg'or yondashuvlar asosida yangi ilmiy izlanishlar olib borilishi, xalqaro ilmiy aloqalarning yanada rivojlanishi hamda innovatsion rivojlanish strategiyalarining takomillashishiga xizmat qilishi kutilmoqda.



Processes of implementing gender policy in science in Uzbekistan

R.Kh. Murtazaeva¹^a

¹National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Tashkent, Uzbekistan

Abstract: The scientific article shows the existence of regulatory legal documents related to gender policy in Uzbekistan, as well as the creation of conditions for women to conduct scientific research. Information is provided on the establishment of a management system in this field at the local level and in relevant organizations. Based on reliable statistical data, the article presents the number of female scientists in various scientific fields. The achievements of the named female scientists are recognized not only in Uzbekistan but also in foreign countries.

Keywords: gender policy, management, female scientist, science, achievements

O'zbekiston ilm-fanida gender siyosatining amalga oshirilish jarayonlari

Murtazaeva R.X.¹^a

¹Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Toshkent, O'zbekiston

Annotatsiya: Ilmiy maqolada O'zbekistonda gender siyosatiga oid normativ-huquqiy hujjatlar mavjudligi hamda xotin-qizlarni ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun sharoitlar yaratilganligi ko'rsatilgan. Sohoni boshqaruv tizimi joylarda va tegishli tashkilotlarda tuzilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Maqolada ishonchli statistik ma'lumotlar asosida turli ilmiy yo'nalishlardagi olima-ayollar soni ko'rsatilgan. Nomlari keltirilgan olimlarni yutuqlari nafaqat O'zbekistonda, balki xorijiy davlatlarda ham tan olinagan.

Kalit so'zlar: gender siyosati, boshqaruv, olima, ilm-fan, yutuqlar

1. Kirish

O'zbekiston Prezidentining nutqlarida ilm-fanni rivojlantirishga hamda xotin-qizlarni ilmiy faoliyat olib borishiga alohida e'tibor qaratiladi. Samarqand shahrida bo'lib o'tgan YuNESKOning 43-sessiyasidagi nutqida quyidagi taklif kiritilishi kelajakda olimlarga ilm-fanda yuqori yutuqlarni qo'lga kiritishga xizmat qiladi.

"Gender tengligi YuNESKOning fundamental, ustuvor vazifalaridan biri bo'lib, Tashkilotning barcha tashabbuslari unga integratsiya kilinishi zarurligi belgilab qo'yilgan. Bu borada a'zo davlatlarning eng ilg'or tajriba va amaliyotini o'rganish, bilimlar almashish maqsadida Xotin-qizlar yetakchiligi bo'yicha YuNESKO akademiyasini tashkil etish vaqti keldi, deb xisoblaymiz. Shuningdek, Samarqandda barcha qit'alarining mashxur tadqiqotchilari, san'at namoyandalari, pedagog va ixtirochi xotin-qizlarning Ta'lim, madaniyat va fan sohasidagi global forumini o'tkazishni taklif etamiz" [1], deb ta'kidladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Ma'lumki, O'zbekistonda gender siyosatini amalga oshirilishining birinchi bosqichida normativ-huquqiy po'ydevor yaratildi.

Milliy fanni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan eng muhim hujjatlardan biri Prezident tomonidan 2019 yil 29 oktyabrda imzolangan «Fan va ilmiy faoliyat to'g'risida»gi Qonun bo'ldi. Unda ta'kidlanishicha, fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyotning rakobatbardoshligi va samaradorligini oshirish, yangi tarmoklarni yaratish, aholi turmush darajasini yuksaltirish bilan bog'liq muammolarni ilmiy jihatdan hal etish maqsadida ishlab chiqilgan.

Shuningdek, 2020 yil 29 oktyabrda davlat rahbari "2030 yilgacha fanni rivojlantirish to'g'risida"gi Farmonini imzoladi. Hujjat fan sohasini yanada takomillashtirishning barcha yo'nalishlarini qamrab oladi hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali iktisodiyot sohasida yuqori ko'rsatkichlarga erishish bo'yicha bir qator muhim vazifalarni belgilab beradi.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (02.09.2019) — gender tengligini ta'minlashning umumiy prinsiplari, davlat organlari vakolatlari, turli sohalarida (mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, saylovlar va h.k.) teng imkoniyatlar kafolatini belgilaydi.

So'nggi yillardagi ilm-fanni rivojlanishiga va undagi xotin-qizlarni o'rni masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu masala davlat darajasiga ko'tarilganligini guvohimiz.

Gender siyosati ijrosi mamlakatda to'rtta darajada tashkil etilmoqda. Eng avvalo Parlament va qonunchilik nazorati Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tengligi bo'yicha qo'mitasi faoliyati gender siyosati bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish, monitoring va tavsiyalar ishlab chiqishda muhim rol o'ynadi. Ikkinchi, ilmiy darajada koordinatsiya BMT CEDAW qo'mitasining xulosalarida (2021 y.) 2019 yilda Gender tengligi bo'yicha komissiya va senat qo'mitasi tashkil etilgani institutsional nuqtai nazardan ijobiy qadam sifatida qayd etildi. Uchinchidan, ijro hokimiyati va hududiy ijro darajasi. Amalda gender siyosati bo'yicha vazifalar markaziy idoralar bilan birga hududiy bo'linmalar, mahalliy ijro organlari, ijtimoiy xizmatlar va profilaktika tizimi orqali bajarilmoqda. To'rtinchi daraja - bu Inson huquqlari institutlari va tegishli tuzilmalar gender masalalarida huquqiy

 <https://orcid.org/0000-0003-1257-7854>

monitoring, murojaatlar bilan ishlash, ma'rifiy ishlar hamda xalqaro mexanizmlar bilan hamkorlikda ishtirok etmoqda..

2. Tadqiqot metodologiyasi

NORMATIV-HUQUQIY ASOS

Ma'lumki, O'zbekistonda gender siyosatini amalga oshirilishining birinchi bosqichida normativ-huquqiy poydevor yaratildi va asosiy qonun va farmonlar quyidagilardir:

"Fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonun (2019 yil 29 oktyabr) — fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirish, yangi tarmoqlarni yaratish, aholi turmush darajasini yuksaltirish bilan bog'liq muammolarni ilmiy jihatdan hal etish maqsadida ishlab chiqilgan.

"2030 yilgacha fanni rivojlantirish to'g'risida"gi Farmon (2020 yil 29 oktyabr) — fan sohasini yanada takomillashtirishning barcha yo'nalishlarini qamrab oladi

hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiyot sohasida yuqori ko'rsatichlarga erishish bo'yicha bir qator muhim vazifalarni belgilab beradi.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini to'g'risida"gi Qonun (02.09.2019) — gender tengligini ta'minlashning umumiy prinsiplari, davlat organlari vakolatlarini, turli sohalarida (mehnat, ta'lim, sog'liqni saqlash, saylovlar va h.k.) teng imkoniyatlar kafolatini belgilaydi.

ILM-FANDAGI XOTIN-QIZLAR: STATISTIK TAHLIL

Gender siyosati amaliyotda yaqqol ko'zga ko'rinmoqda. Ushbu jarayon ilm-fanda o'z samarasini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ilm-fandagi feminizatsiya jarayoni o'z samarasini bermoqda va xotin-qizlar O'zbekiston ilm-fanida 48 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda fan - jamiyatning eng qimmatli kapitali, davlatning intellektual resursi. Mamlakat ilm-fanidagi ayollar soni (2021 yil): tabiiy fanlarda - 3.059; texnika fanlarda - 1.393; ijtimoiy fanlarda - 2.508, gumanitar fanlarda - 2.504 [2]

1-jadval

ILM-FANDA XOTIN-QIZLAR [3]

Oliy ta'limdan keyingi ta'limda tahsil olayotgan xotin-qizlar: 15 926 nafar 47,8 %	Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ajratilgan kvota bo'yicha: (DSc) – 379 nafar (PhD) – 6 551 nafar Stajyor-tadqiqotchi – 165 nafar	Joriy yilda davlat byudjeti mablag'lari hisobidan ajratilgan kvota bo'yicha: (DSc) – 183 nafar (PhD) – 2 833 nafar Stajyor-tadqiqotchi – 165 nafar	Mustaqil izlanuvchi sifatida tahsil olayotgan xotin-qizlar: (DSc) – 1 341 nafar (PhD) – 7 490 nafar
2025-yilda xorijiy ilmiy stajirovkaga yuborilgan xotin-qizlar Jami: 17 nafar	Turkiyaga – 9 nafar		
	Latviyaga – 1 nafar		
	Xitoyga – 3 nafar		
	Buyuk Britaniyaga – 1 nafar		
	Vengriyaga – 1 nafar		
	Belarus Respublikasiga – 1 nafar		
	Birlashgan Arab Amirliklariga – 1 nafar		
1 612 ta	2022–2025-yillar mobaynida "Olima ayollar" tanloviga taqdim etilgan loyiha talabnomalari:	540 ta	2025-yil mart oyida "Olima ayollar" tanloviga taqdim etilgan loyiha talabnomalari:
156 ta	Saralab olingan va moliyalashtirilgan loyihalar:	408 ta	Keyingi bosqichlarga tavsiya etilmagan loyihalar:
127,3 mlrd so'm	Umumiy qiymati:	132 ta	Turli bosqichlarda ko'rib chiqilayotgan loyihalar:



2-jadval

OTMlardagi akademiklar soni (erkak/ayol) [4]

T/r	Ko'rsatkichlar	Y i l l a r								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan akademiklar soni	30	30	30	27	26	23	23	56	56

Izoh: OTM larda faoliyat yuritayotgan akademiklar orasida ayollar yo'q.

3-jadval

OTMlardagi fan nomzodlari (PhD) soni (erkak/ayol)

T/r	Ko'rsatkichlar	Y i l l a r								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Oliy ta'lim muassasalaridagi fan nomzodlari (PhD) soni, jumladan:	6 649	7 050	7 868	9 090	10 029	10 651	11 477	13797	14723
1.1	Erkaklar	4 788	5 050	5 744	6 554	7 231	7 680	8 379	8706	9484
1.2	Ayollar	1 861	1 974	2 124	2 536	2 798	2 971	3 098	5091	5239

4-jadval

O'zbekiston OTMlardagi fan doktorlari (DSc) soni (erkak/ayol)

T/r	Ko'rsatkichlar	Y i l l a r								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Oliy ta'lim muassasalaridagi fan doktorlari (DSc) soni:	1 666	2 023	2 256	2 312	2 657	2 799	2 764	3197	3425
1.1	Erkaklar	1 183	1 437	1 602	1 642	1 888	1 988	1 935	2228	2446
1.2	Ayollar	483	586	654	670	769	811	801	969	979

5-jadval

Mahalliy jurnallarda nashr etilgan maqolalar soni

T/r	Ko'rsatkichlar	Y i l l a r								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Professor-o'qituvchilar tomonidan mahalliy jurnallarda nashr etilgan maqolalar soni	3 736	6 756	10 484	13 972	17 820	24 654	3 418	48669	9927

6-jadval

Scopus/Web of Science bazalarida indekslanuvchi jurnallarda nashr etilgan maqolalar soni

T/r	Ko'rsatkichlar	Y i l l a r								
		2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025*
1.	Professor-o'qituvchilar tomonidan Scopus/Web of Science bazalarida	364	421	1 429	3 739	3 656	3 876	550	1437 3	2634



	indekslanuvchi jurnallarda nashr etilgan maqolalar soni								
--	---	--	--	--	--	--	--	--	--

Mashhur va taniqli olimalar soni yildan yilga ko'paymoqda.

O'zbekistonda olimalar nafaqat mamlakatimizda, balki xorijiy davlatlarda ham ularning yutuqlari tan olingan.

1. Dilfuza Egamberdieva - "Super crops" (super ekinlar) loyihalari bo'yicha mikroorganizmlarning o'simliklar bilan o'zaro ta'sirini o'rganadi, chekka yerlar, tuzlangan tuproqlar va sho'rli yerlarda ham o'simlik qilib yetishtirish imkoniyatlarini yaratadi. Bu tadqiqotlar oziq-ovqat xavfsizligi, tuproqni tiklash, ekologik barqarorlik kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

2. Leyla Belyalova - biolog, ekolog, O'zbekistonda qushlar va boshqa biologiya xilma-xillikni saqlash, tabiiy hududlarda monitoring va muhofaza ishlari kesimida faol. Bu Bioxilmaxillik maqsadlariga, ekologik tizimlarning barqarorligiga hissa qo'shadi.

3. Nilufar Robbanakulovna Avezova - qaytaruvchi energiya manbailari va energiya samaradorligi sohasida keng tadqiqot-qo'llab-quvvatlash ishlari mavjud. Bu O'zbekistonning energiya siyosatida, atmosferaning ifloslanishini kamaytirish va "yashil" energetikaga o'tishda muhim rol o'ynaydi.

4. Shaxlo Turdiqulova - biologiya fanlari doktori, O'zbekiston FA vitse-prezidenti lavozimini egallagan birinchi ayol bo'ldi. Inson genetikasi bo'yicha bilimga ega bo'lgan u 160 dan ortiq ilmiy maqolalar, jumladan ikkita darslik va ikkita monografiya taqdim etgan va xalqaro nashrlarda 40 dan ortiq maqolalar chop etgan.

5. Nilufar Mamadalieva - biokimyogar olim, uning ilmiy faoliyati Markaziy Osiyodagi shifobaxsh o'simliklarning faol moddalari fitokimyoviy va biologik tadqiqotlariga qaratilgan. U 2011 yili hayot fanlari sohasidagi yosh ayollar uchun taqdim etiladigan UNESCO-L'Oréal mukofotiga sazovor bo'lgan. 2014 yilda esa rivojlanayotgan mamlakatlarning yosh ayol olimlari uchun beriladigan Elsevier Foundation Award mukofoti bilan taqdirlangan.

3. Xulosa

Barqaror rivojlanish maqsadlari va vazifalarni bajarilishi

jarayonida O'zbekiston davlati olimlari ayollari faol ishtirok etmoqda. Bu maqsadlarga erishishda ilm-fanning, xususan, olimlarning roli beqiyos. Ulap tahlil, innovatsiya, siyosat yaratish va faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

TAVSIYALAR:

1. Mintaqaviy ilmiy platformalar va forumlar sonini ko'paytirish;

2. Yosh tadqiqotchilar va ayol olimlarni qo'llab-quvvatlash;

3. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish;

4. Ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar / References

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning YuNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilishi marosimidagi nutqi. president.uz

[2] O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi raqamlarda (2017-2025 yy.).

[3] Innovatsiya rivojlanish agentligi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

[4] O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi raqamlarda (2017-2025 yy.).

Mualliflar to'g'risida ma'lumot / Information about authors

**Murtazaeva
R.X. / R..Kh.
Murtazaeva**

O'zbekiston Milliy universiteti, tarix fakulteti, O'zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasini professori, tarix fanlari doktori, O'zbekiston xotin-qizlar "Olima" uyushmasi raisi
Tel: +998908087265
E-mail: rhmyrt@rambler.ru
<https://orcid.org/0000-0003-1257-7854>



L. Shukurilloeva

Digital education as a driver for increasing women's participation in STEM fields.....53

V. Soy, G. Nuriddinova

The effect of dispersed silica gel on the physical and mechanical properties of cement binder for non-autoclaved foam concrete.....59

E. Sunatillaeva

Development of Turkic languages in the era of global integration.....63

Kh. Tasheva, D. Kuchkarova, S. Abdullin, A. Isokov, T. Tsoy

On the standardization of fuel and electricity consumption for hybrid vehicles.....66

Y. Prihatin, U. Ziyamukhmedova, M. Al Ghibrani

Critical evaluation of ELSAKTI learning management system implementation at Universitas Pancasakti Tegal based on student document analysis.....70

N. Khujamkulova

Theoretical foundations and practical experience of using Mentimeter WordCloud application in Uzbek language classes for higher education students.....80

U. Ziyamukhamedova, Z. Jalolova, M. Abdulakimov, M. Patidinov, L. Bakirov, J. Ziyamukhamedov

Investigation of the thermal stability of the compositions of thermoset-based, anti-friction, wear-resistant polymer composite materials84

E. Kadirova

Methodology for improving software and didactic support aimed at developing programming competence among future engineers88

Sh. Makhmudova, A. Juraev

Influence of a truncated conical elastomeric element on rotor vibrations in a bearing support.....95

R. Murtazaeva

Processes of implementing gender policy in science in Uzbekistan.....102